TILSHUNOSLIK

UDK: 81’373.4 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a89**

KORPUS LINGVISTIKASI DOIRASIDAGI DISKURS TADQIQOTLARNING ILMIY-NAZARIY MUAMMOLARI

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ДИСКУРСА В РАМКАХ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

SCIENTIFIC AND THEORETICAL PROBLEMS OF DISCOURSE RESEARCH WITHIN CORPUS LINGUISTICS

Nurmatova Go‘zal Xakimovna[1]

[1]O‘zbekiston davlat jahon tillar univeriteti Ingliz filologiyai fakulteti, ingliz tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning ilmiy-nazariy muammolari to‘g‘risida so‘z yuritilib, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning afzalliklari va kamchiliklari borasida tilshunos olimlarning fikrlari o‘rganib chiqilgan. Muallifning diskursning aspektlari kesimida korpus va diskursning sinergik ta’siri borasidagi fikri korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning samaradorligi asoslagan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются научно-теоретические проблемы исследования дискурса в рамках корпусной лингвистики, а также рассматриваются мнения лингвистов о преимуществах и недостатках исследований в этом направлении. Мнение автора о синергическом эффекте корпуса и дискурса на основе аспектах дискурса обосновало эффективность исследования дискурса в рамках корпусной лингвистики.

Abstract

This article discusses the scientific-theoretical problems of discourse research within corpus linguistics, and examines the opinions of linguists about the advantages and disadvantages of research in this direction. The author’s opinion on the synergistic effect of the corpus and on the base of discourse aspects has been justified the effectiveness of discourse research within the framework of corpus linguistics.

Kalit so‘zlar: *ilmiy-nazariy muammolar, diskurs tadqiqoti, diskurs tahlili, korpus lingvistikasi, matn, mazmun, sinergik effekt.*

Ключевые слова: *научно-теоретические проблемы, исследование дискурса, дискурснй анализ, корпусная лингвистика, текст, контент, синергетический эффект.*

Key words: *scientific and theoretical problems, discourse research, discourse analysis, corpus linguistics, text, content, synergistic effect.*

KIRISH

Korpus lingvistikasining “korpusga asoslangan” (corpus-based) va “korpusga yo‘naltirilgan” (corpus-driven) mohiyati borasida tilshunos olimlarning bahs-munozralari bo‘lganligi kabi diskursning “diskurs tahlillari” (discourse analyses) va “tanqidiy diskurs” (critical discourse) terminlarining mohiyatini yoritishda ko‘pgina tilshunos olimlarning bahs-munozaralariga sabab bo‘lib kelgan.

“Korpusga yo‘naltirilgan” (corpus-driven) tarafdorlari korpus lingvistikasini mohiyatan nazariya sifatida ko‘rib, til ma’lumotlariga frazeologik, sintagmatik yondashuvga tayanadi (Sinclair, 2004). Korpusga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga asoslanuvchi olimlarning fikricha, korpus lingvistikasi mohiyatan nazariyadir va unda korpus tadqiqoti tilning shu paytgacha noma’lum tomonlarini ochib beruvchi, shu bilan “ko‘plab aniq nazariy pozitsiyalar asosida yotgan ayrim taxminlarni” shubha ostiga qo‘ya oladigan nazariy ta’limotdir. (Tognini Bonelli, 2001: 48). Shu sababli ular ma’lumotlarning har qanday avvalgi qarashlarga qarshi chiqib, frazeologik yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan sintagmatik, leksik-grammatik sxemalarni berkitib qo‘yishini ta’kidlaydilar. Biroq ko‘pchilik korpus tilshunoslari ko‘proq “korpusga asoslangan” tadqiqotlar tarafdorlaridir. Misol uchun Arts (2002) korpus lingvistikasini tilning mavjud tavsiflarini tekshirish metodologiyasi deb hisoblaydi, unda berilgan korpus mos kelmasa, tavsifga o‘zgartirishlar kiritish mumkin. McEnery (shuningdek Biber va boshq., 1998; Conrad, 2002) va boshqa tilshunoslar (2006) tomonidan korpus lingvistikasi lingvistika tadqiqotlariga yangi falsafiy yondashuv sifatida qaraladi; ular buni nazariya maqomiga

ega deb hisoblamaydilar. Ushbu turli xil nazariy pozitsiyalarga qaramasdan, korpus lingvistikasi odatda metodologiya hisoblanadi va “korpusga asoslangan” atamasi korpus tadqiqotlari uchun umumiy atama sifatida ishlatilgan.

Tilshunoslikda diskurs fanlararo kesimida o‘rganilishi diskurs tahlili *(discourse analyses)* yoki diskurs tadqiqotlari *(discourse studies)* deb ataladi hamda tilshunoslikning eng dolzarb tadqiq yo‘nalishlaridan biri sifatida zamonaviy lingvitik tahlillarning turli yondashuvlar prizmasi orqali aniqlashda amalga oshirilib kelinadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy yo‘nalish sifatida diskursiv tahlil XX asrda vujudga kelib, so‘nggi o‘n yilliklardagina shakllandi. F.De Sossyur tilshunoslikning haqiqiy ob’ekti til tizimi (nutqdan farqli o‘laroq) deb hisoblagan. N.Xomskiy esa tilshunoslarni lingvistik kompetentlik va tildan foydalanish masalalarini abstrakt o‘rganishga chaqirgan. Biroq so‘nggi paytlarda til fanida kognitiv munosabatlar o‘zgara boshladi, fikr kuchaydi, unga ko‘ra hech bir til hodisasini ularning qo‘llanishidan tashqari, ularning diskursiv tomonlarini hisobga olmasdan, adekvat anglab, tasvirlab bo‘lmadi. Diskursiv tahlil tilshunoslikning markaziy bo‘limlaridan biriga aylanadi.

Diskurs tadqiqotlari zamonaviy tilshunoslikda o‘ziga xos tahlillarni o‘z ichiga olishi hamda korpus lingvistikasi doirasida amalga oshirilishi ham bugungi kunda dolzard ilmiy qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Diskursiv tahlilning maqsadi og‘zaki yoki yozma nutqning ortidagi ijtimoiy kontekstni aniqlashi hamda til va ijtimoiy jarayonlar o‘rtasidagi munosabatni, matnning kommunikativ qayishqoqligidir, ya’ni korpusdagi matnlar qo‘shimcha meta belgilarga ega bo‘lib, avtor haqida ma’lumotga, matnning davri, janri ba boshqa ma’lumotlar berishi hamda korpusda olib borilgan tahlillar o‘z mazmun-mohiyati va hususiyatiga ko‘ra tadqiq qilinishi, tadqiqotchiga keng istiqbollarni belgilab berishi mumkin.

1998-yildayoq L.Flaudu korpus lingvistikasining diskurs tahlilini “amalga oshirish” imkoniyatlariga e’tibor qaratgan edi (Flowerdew, 1998). McEnery va boshqalar (2006: 111) madaniy bo‘linish “hozir kamayib borayotganini” ta’kidlaydi va Partington (2004) korpus va diskurs usullari bir-birini to‘ldiradi, degan fikrni ilgari suradi. Ushbu tadqiqotda gnoseologiya va metodologiyalardagi o‘ziga xos farqlarni hisobga olgan holda, korpus va diskurs yondashuvlari qay darajada umumiy kesishuv nuqtasini tashkil etishini ko‘rib chiqadi. Korpusga asoslangan diskurs tahlillarni Hyland (2009: 20) tomonidan taklif qilingan quyidagi uchta asosiy yondashuvdan ko‘rib chiqiladi. Ularning bir-biriga mos tushadigan sohalari mavjud bo‘lib, har biri mos tushgan jihatlariga asoslanadi. Hyland usbu jihatlar qo‘yidagicha keltiradi:

Matnli yondashuv: matnlardagi til tanlash, ma’no va namunalarga, shu jumladan Swales (Swales, 2004) janr tushunchasiga va muammoni hal qilish uslubiga asoslangan yondashuvlar. Nutq darajasida ishlaydigan turli frazeologik elementlar ham ko‘rib chiqiladi.

Tanqidiy yondashuv: tanqidiy diskursni tahlil qilish (Critical discourse analyses) kabi tanqidiy munosabatni keltirib chiqaradigan yondashuv. Ushbu yondashuvda boshqa usullardan, masalan, tizimli funktsional tilshunoslik (systemic functional linguistics) usullardan foydalaniladi.

Kontekstual yondashuv: korpus ma’lumotlariga ko‘proq sotsiolingvistik yondashuvni qabul qiladigan tahlillar, bu erda vaziyat omillari ham hisobga olinadi. Ushbu yondashuv suhbat tahlili, nutq akti nazariyasi va pragmatikaga asoslanadi.

Biroq korpus doirasidagi diskurs tadqiqotlarning afzalliklari bilan bir qatorda, ushbu tahlillarning afzalsizliklari ham ko‘zga tashlanadi. Diskurs tadqiqotlarda korpusdan foydalanishda M.Fludernik [2] tadqiqotchining quyidagi ikkita asosiy muammo bilan duch kelishi mumkinligini ko‘rsatgan: birinchidan, diskurs tadqiqotlarning sifati korpusning hajmi va uning yaratilgan davridir; ikkinchidan, kommunikativ hodisalarning korpusda annotatsiya qilinmasligidir. Shuningdek, M.Fludernikning fikricha, ayrim diskurs tadqiqotchilar matnning struktur-semantic hususiyatlarni statistic tahlillar ochib bera olmasligi va bu o‘z navbatida murakkab kommunikatsiya birliklarning hususiyatlarini ochishga muammolar tug‘dirishi haqida gapirib ketgan. Biroq, korpusga asoslangan diskurs tadqiqotlarning eng muhim afzalliklridan matnlarni tahlil qilish va qayta ishlashda an’anaviy tilshunoslikda kuzatib bo‘lmaydigan hodisalarni korpusda imkoni borligi eng asosli omil bo‘lishi, tilshunos olimlarning aynan shu talqinda tadqiqotlarni amalga oshirishga undab kelmoqda.

KLsining metodologik vositalari va diskursiv yo‘naltirilgan yondashuvlar kombinatsiyasi orqali sinergik ta’sirga ega bo‘lishi bir nechta tadqiqotlarda P.Baker, Gabrielatos, Khosravinik,

TILSHUNOSLIK

Krzyzanowski, McEnery, R.Wodak (2008) tilshunoslikning imkoniyatlaridan biri sifatida qaralishi isbotlangan [3]. Diskurs va korpus tahlillarining tadqiq usullsri turlicha bo‘lsa-da, ularni birlashtiradigan asosi matn konteksti bo‘lib, iskkita – diskusrsning kvalitativ usuli (matn/nutq interpretatsiyasi) va korpusning kvantitativ (statistik ahamiyatligi) ussullari qo‘llaniladi. Bunday kombinatsiyadagi tadqiq usullari samarali foydalanishiga qaramasdan, ayrim olimlar tomonidan tanqidiy qarashlariga ham duch kelgan. V.Chernyavskaya fikricha bunday kombinatsiyadagi tadqiqotlar tilning funktsional jarayonini tushinishda KL qanday hissa qo‘shishini va bu muammoni yoritishda diskurs tahlillarning imkoniyatlari borasida tanqidiy qarashlarni keltirishni tahmin qiladi. V.E. Chernyavskaya: “DTni o‘zgacha, sifat jihatdan yo‘naltirilgan, chuqur, makrosemantik tahlil, uning vazifasi va tushuntirish imkoniyatlari boshqa til birliklari emas, balki qanday tashqi omillar ta’sirida tanlanishi va ishlatilishini ko‘rsatishdir, ya’ni iksplisit va implisit jihatlar birgalikda tahlil qilinadi”, deb hisoblagan bo‘lsa, Britaniyalik tilshunos V.Brezina statistik tahlillar so‘zlarning boshqa aspektlarida tadqiq qilish imkoniyatlarini ko‘rsatgan va statistikaning kvantativ tahlillari, hattoki, diskurs kesimida ham amalga oshirib, kvalifikativ natijalarni qo‘lga kiritish mumkinligini ta’kidlagan [4] va bu borada V.Brezina quyidagicha fikr bildirgan: “Diskurs kesimidagi statistik tahlillar tabiiyki paradoksal holatdir. Diskurs tahlillari keng, o‘zgaruvchan va hatto noaniq bo‘lishi bilan birga statistik tahlillar esa aksincha, aniq va kat’iy faktlardan iboratdir”. Rus tilshunosi B.N. Golovin esa XX asrning 60 - yillarning boshlaridayoq statistik tahlillar tilshunoslikning ba’zi ziddiyatlarini kvalifikativ va kvantitativ tahlillar asosida o‘z echimini topadi degan fikrni ilgari surgan [5].

Amerikalil tilshunos D.Shifrin DTlar deganda uchta umumiy kategoriyani keltiradi:

1) tilning ishlatilishini o‘rganish *(the study of language use)*;

2) “gapdan tashqari” lingvistik tuzilmani o‘rganish *(the study of linguistic structure)*;

3) til va muloqot bilan bog‘liq ijtimoiy amaliyot va mafkuraviy farazlarni o‘rganish (*the study of social practices and ideological assumptions that are associated with language and/or communication)* [7].

Birinchi kategoriyadagi, tilning ishlatilishini o‘rganishda asosiy e’tibor ibora va jumla tuzilmalari kabi an’anaviy lingvistik konstruksiyalarga qaratiladi, lekin umuman olganda, deyarli ekvivalent ma’noga ega bo‘lgan strukturaviy variantlari, masalan, ingliz tilidagi ‘pick up the book’ va ‘pick the book up’ (kitobni ko‘tarib olish) yuklamalarning gapdagi harakati lingvistik farqlanishiga e’tibor qaratadi. Ikkinchi kategoriyada lingvistik tuzilmalarni o‘rganish esa kattaroq tadqiqot ob’ektiga qaratiladi: so‘zlar yoki jumlalarning kengaytirilgan ketma-ketligi va matnlar qanday tizimli tarzda tuzilgan va tashkil etilishi. Garchi ushbu turdagi tadqiqotlarda strukturaviy tilshunoslikning an’anaviy mavzularidan (asosan fraza va jumla sintaksisiga e’tibor qaratadigan) yiroq bo‘lsa-da, ikkalasi ham asosiy e’tiborni lingvistik shaklga va til tuzilmalaridan muloqot qilish uchun ishlatishga qaratadi. Bundan farqli o‘laroq, dikursga ijtimoiy-madaniy yondashuvlar yoki muayyan muloqot hodisalarida ishtirokchilarining harakatlariga yoki diskursning (masalan, gender masalalarga nisbatan) umumiy xususiyatlariga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar odatda matnlarda ishlatiladigan lingvistik shakllarni tushunish bilan bog‘liq emas hamda bu uch xil nuqtai nazarlar DTlari alohida yondashuvlarni talab qiladi degani emas [8].

A.K. Xurmatulinning fikricha, zamonaviy diskurs tahlillar uchta asosiy oqimdan kelib chiqadi:

1. *Pragmatik* – kommunikatsion vaziyat, konseptual muloqot jarayonida va matn kesimida amalga oshirilib kelinadi;

2. *Jarayonlar* – muloqot jarayonidagi ishtirokchilar ongida sodir bo‘layotgan konseptual hodisalar;

3. *Matn* - muloqot jarayonining natijasi.

Ushbu oqimlar zamonaviy tilshunoslikdagi diskurs terminini to‘rtta yondashuv asosida farqlanadi:

1. *Kommunikativ (funktsional) yondashuv:* muloqot (nutq, foydalanish, tilning ishlashi), dialog sifatida yoki suhbat, ya’ni dialogik bayonotning bir turi yoki ma’ruzachi pozitsiyasidan nutq sifatida. Kommunikativ yondashuv doirasida “muloqot” atamasi “o‘z predmeti, ob’ekti, joyi, vaqti, yaratilish (ishlab chiqarish) sharoitlari bo‘yicha nutqqa aylangan ma’lum bir belgi tuzilishi” sifatida talqin etiladi;

2. *Strukturaviy-sintaktik yondashuv:* nutq matn bo‘lagi sifatida, ya’ni gap sathidan yuqori ta’lim (ustun birlik, murakkab sintaktik butun, paragraf). Muloqot deganda bir-biri bilan semantik


munosabatda bo‘lgan ikki yoki undan ortiq gap tushuniladi, bog‘lanish esa nutqning asosiy belgilaridan biri sifatida qaraladi;

3. *Strukturaviy-stilistik yondashuv:* so‘zlashuv nutqining matnsiz tashkil etilishi sifatida, qismlarga bo‘linish, assotsiativ aloqalarning ustunligi, vaziyatlilik, yuqori kontekstlilik, stilistik, o‘ziga xoslik bilan tavsiflanadi;

4. *Ijtimoiy-pragmatik yondashuv:* nutq so‘zlashuvning ijtimoiy yoki mafkuraviy jihatdan cheklangan turi sifatida yoki “tildagi til” sifatida, lekin o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan maxsus ijtimoiy ob’ekt sifatida taqdim etilgan, muloqot holatiga, ijtimoiy hayotdgi real matn sifatida.


NATIJALAR

Yuqoridagi farqlashlarni umumiy tomonlarini tahlil qilsak, KL va DT tadqiqotlarida asosiy negiz matn va nutq bo‘lib qolmoqda va bunday negiz o‘zaro sinergik ta’sirni vujudga keltiradi degan xulosaga kelish mumkin (qarang 1.1 –rasm).



1.1-rasm. Sinergik ta’sir: Korpus va diskurs.

M.A. Mojeyko, G.B. Gutner, A.P. Ogurtsov va T.X. Kerimovlarning fikricha tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi tilning dinamik modellarining keng qo‘llanilishi munosabati bilan nutq faoliyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida, shuningdek, tilni dunyoqarash va dunyoqarash tizimini ifodalash vositasi sifatida o‘rganishda, nutq faoliyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstlarda ko‘rib chiqiladigan mafkuralar, qarashlar va fikrlarni anglatadi. Yana bir keng tarqalgan yondashuv shundan iboratki, nutq nafaqat lingvistik tuzilish birliklarining ba’zi bir izchil ketma-ketligi sifatida, balki til bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan, funktsional jihatdan tashkil etilgan, kontekstuallashtirilgan foydalanadigan til birliklarining ajralmas to‘plami sifatida qaraladigan kontekst deb ham tushiniladi hamda lingvistik, ekstralingvistik va pragmatik parametrlarni, ya’ni matnning jismoniy tashuvchisi, vaziyat, kontekst, intertekst, aloqa ishtirokchilarini, funktsiyalarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, diskursning asosiy yondashuvi “Diskurs = Matn + Kontekst” formulasi bilan ifodalanishi mumkin [9] (qarang 1.1 –rasm).



1.2-rasm. Diskurs formulasi.

Diskurs doirasidagi matn tadqiqoti tilshunoslikning turli paradigmatik jarajonlarda tadqiq qilinishi mumkin. Bu borada E.S.Kubryakova quyidagi bir paradigmatic jarajonlarni boshqa paradigmatic jarajonlarga o‘tishini keltiradi [9]:

Kognitiv-kommunikative → *kognitiv-diskursiv* → *diskursiv-stilistik*

TILSHUNOSLIK

MUHOKAMA

Ta’kidlash joiz-ki, diskursiv-stilistik paradigma epistemik - mazkur tadqiqot terminologik apparatning tushunish muammolari diskurs nazariyasining hozirgi holati kognitiv tilshunoslikning bazaviy tushunchalaridan hamda epistemik paradigma pozitsiyasidan qaralishini taqazo etadi. Bunda diskursni tahlili matnning universal ekstralingvistik modeli doirasida amalga oshuvi antropotsentrik, ya’ni, tilga nisbatan yangi yondashuvga qarshi chiqish mutlaqo qonuniy bo‘lmasligi, insonning tilga va undagi voqelikka munosabatiga e’tibor qaratish; tilning o‘zini o‘zi ta’minlovchi belgilar tizimi sifatidagi an’anaviy qarashlari, ularni o‘rganish tegishli birlik va tuzilmalarni dunyoga munosabatini o‘rganish bilan cheklanadi. Aristotel tomonidan shakllantirilgan, ammo keyin uzoq vaqt unutilgan til tizimining avtonomiyasizligi printsipi bugungi kunda tadqiqotchilarni tilga ikki yondashuv o‘rtasida *konjugatsiya* nuqtalarini izlashga majbur qilmoqda, chunki til tabiatan antropotsentrik va antropomorfenligi, inson yashaydigan va harakat qiladigan muhitning yaxlit qismidadir. Shunung uchun tilning tuzilishi va faoliyatini tushunish uchun o‘rganish (ya’ni tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri) tabiiy ravishda *epistemologik yo‘nalishga* ega bo‘lishi kerak [10].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichini shartli ravishda matnni o‘rganishdan dikursni o‘rganishga o‘tish deb belgilanishi matnni diskurs tizimida o‘rganish zarurligini keltirib chiqaradi.

Diskursning ontologik mohiyatini ochib berish uchun uning matn va funksional uslub bilan aloqasini ko‘rib chiqish zarur bo‘lsa, diskurs borasida fundamental tadqiqotlarni E.S. Kubryakova olib borgan tadqiqotlari muhum kasb etishi bilan alohida ajralib turadi. Olima 20-asrning ikkinchi yarmida tilni jadal o‘rganish natijasida ko‘plab tushunchalarning, jumladan, diskurs va diskursiv tahlil tushunchalarining asl ma’nosi o‘zgarishiga olib kelganligini ta’kidlab, “diskurs” tushunchasining evolyutsiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Diskursni amaliyot, tildan foydalanish, nutq, nutq faoliyati, kommunikativ faoliyat nuqtai nazaridan an’anaviy tushunishdan uni so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi maxsus interaktiv kommunikativ hodisa sifatida, inson aqliy dunyosining bir bo‘lagi sifatida tushunishgacha - nafaqat ma’lum bir sohada bilimlarni uzatish va ishlatish bilan, balki yangi bilimlarni yaratish bilan ham shug‘ullanadigan hodisa [Kubryakova 2000] deb keltirgam. Diskursni o‘rganishning zamonaviy kognitiv-kommunikativ paradigmasi mana shunday shakllangan bo‘lib, u asta-sekin butun tilshunoslikning kognitiv-diskursiv paradigmasiga aylanib bormoqda.

Agar korpus lingvistikasining funktsional jihatlarini hisobga olsak, u ham ma’lumotlar bazasiga, ya’ni matnga tayanadi. Jumladan, G.X. Nurmatovaning [6] avvalgi tadqiqotida korpus tahlillari matn, undagi ma’lumot turi, va korpusda matn tahlilida statistik ma’lumotning o‘rni haqida gapirilganda, til - potensiya va undan kelib chiqadigan mahsulot nutq - realizatsiya bo‘lishiga ko‘ra, nutqdan tilga qarab - kvantitativ tahlildan kvalifikativ tahlilga o‘tilishi borasida fikr bildirilgan edi, ya’ni nutq yozma yoki og‘zakin shakldagi matn ekanligini hisobga olinsa, korpus tadqiqotlarining materiali ham diskurs tadqiqotlardagi kabi matn bo‘lib qolmoqda.

Kontekst esa matndagi kommunikatsiyaning ko‘rinishi deb hisoblansa, undagi kommunikativ leksik birliklar – gaplardagi *uzluksiz semantik munosabatlar*ni kuzatishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida diskursiv tahlillarni turli aspektlarda olib borishga undaydi.

XULOSA

V.N.Babayan dikurs tadqiqotlarni quyidagi aspektlarda tadqiq qilinishi mumkinligini keltirgan: a) lingvo-kommunikativ aspect; b) logik-semantik aspect; c) mazmun-mohiyat (kontekst) aspekti.

Matn va kontekst borasidgi talqinlarga asoslanib, diskurs formulasiga qo‘yidagi izoh keltirildi: Diskurs - bu tinglovchiga / o‘quvchiga / kuzatuvchiga qaratilgan og‘zaki yoki yozma, monologik yoki dialogik shakldagi jumlalarning (replikatsiyalarning) semantik va grammatik jihatdan bog‘langan ketma-ketligi sifatida tushunadigan izchil matn bo‘lib, unda yaxlit kommunikativ- nutqiy vaziyat va uning barcha a’zolarini ekstralingvistik omillar sifatida hisobga olishdir. “Diskurs = Matn + Kontekst” formulasi matnnni inson aqlidan paydo bo‘ladigan kommunikativ jarayonda tilning mahsuli hisoblanmish matn deb qarasak hamda diskurs tahlilni asosiy oqim va yondashuvlarini qamrab oluvchi yuqorida keltirilgan uchta - lingvo-kommunikativ, logik-semantik, mazmun-mohiyat aspektlari kesimida olib borilisa 1.1-rasmda keltirilgan korpus va diskursning sinergik ta’sirini ko‘rsata olgan bo‘lamiz.

Korpus hamda diskurs kombinatsiyadagi tadqiqotlar ayrim tilshunos olimlarning turli qarashlarni vujudga keltirisa-da, bunday tadqiqotlar samarali xulosalar va natijalar berishi ham ehtimoli katta ekanligi yuqoridagi fikr va muloazalardan ko‘rib chiqildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хурматуллин А.К., Понятие дискурса в современной лингвистике. Ученые записки Казанского государственного университета. Том 151, кн. 6, 2009. –С. 31-37.
2. Шилихина К.М., Использование корпусов в исследованиях дискурса /Вестник ВГУ. серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2014. № 3. –С. 21-26.
3. Чернявская В.Е., Дискурсивный анализ и корпусные методы: необходимое доказательное звено? Объяснительные возможности качественного и количественного подходов // Вопросы когнитивной лингвистики. 2018. № 2. С. 31.
4. Brezina V. “Semantics and discourse: Collocations, keywords and lockwords” номли онлай маърузаси. http://corpora.lancs.ac.uk/stats/materials.
5. Головин Б.Н. Язык и статистика. Москва: Просвещение,1971.-С. 187. 10-11с.
6. Nurmatova G.X. 3 AntConc va GraphColl dasturiy qurilmalarida muhandilik terminlarining korpusda lingvostatistik tadqiq muammolari. –diss, -Farg‘ona: 2021.
7. Upton T., Cohen M.: An approach to corpus-based discourse analysis. // Discourse studies. 2009 № 11 (5). P. 586.
8. Можейко М. А., Гутнер Г. Б., Огурцов А. П., Керимов Т. Х. — Дискурс / Гуманитарный портал: Концепты [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий, 2002–2022 (последняя редакция: 09.03.2022). URL: https://gtmarket.ru/concepts/6987
9. Кубрякова, Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики / Е.С. Кубрякова // Известия Рос. акад. наук.Сер. литературы и языка. – М.: Наука, 2004. – Т. 63, № 3. – С. 3–12.
10. Кравченко А. В., Когнитивная лингвистика и новая эпистемология. Известия. Серия литературы и языка, 2001, том 60. № 5, с. 3-13.